

INGLIZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna

Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Tel: 91 441 10 90

E-mail: Muattarubaydullayeva39gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola tilshunoslik uchun dolzarb masalardan biri atrofida fikr yuritadi. Ingliz tilida frazeologik birliklar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, alohida birliklar sifatida yuritiladi. Frazeologizmlar xalqning turmush tarzi va kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi asosiy birliklar sifatida qo'llaniladi. Har bir til frazeologizmlari shu tilda so'zlashuvchi xalq madaniyatoga xos unsurlarga boy asos hisoblanadi va shu bilan birga shu tilning shakllanishiga sabab bo'ladigan omillar haqida so'zlaydi. Mazkur maqolada biz frazeologik birliklarning ba'zi bir yangi xususiyatlardan xabardor bo'lamiz.

Kalit so'zlar: nominativ funksiya, frazeologik birlik, model, frazeologizmlar, birlik, ko'chma ma'no, komponent, predmet, tilshunoslik.

Аннотация: В данной статье размышляется об одном из актуальных для языкознания вопросов. В английском языке фразеологизмы имеют свои особенности и трактуются как отдельные единицы. Фразеологизмы используются как основные единицы, дающие информацию об образе жизни и происхождении людей. Фразеологизмы каждого языка представляют собой богатую базу элементов, характерных для культуры народа, говорящего на этом языке, и в то же время говорят о факторах, обуславливающих формирование этого языка. В этой статье мы узнаем о некоторых новых особенностях фразеологизмов.

Ключевые слова: номинативная функция, фразеологизм, модель, фразеологизм, единица, переносное значение, компонент, объект, языкознание.

Abstract: This article reflects on one of the topical issues for linguistics. In English, phraseological units have their own characteristics and are treated as separate units. Phraseologisms are used as basic units that provide information about people's lifestyle and origin. Phraseologisms of each language are a rich base of elements specific to the culture of the people who speak this language, and at the same time, they talk about the factors that cause the formation of this language. In this article, we will learn about some new features of phraseological units.

Key words: nominative function, phraseological unit, model, phraseological units, unit, figurative meaning, component, object, linguistics.

Soʻz tilda nominativ funksiyaga ega asosiy ammo yagona boʻlmagan birlikdir. Nutqda u boshqa soʻzlar bilan birikish xususiyatiga ega boʻlib, uning bu soʻz birikmalari yasash funksiyasi sintaktik normalar va qoidalar asosida boshqariladi. Tilda bunday birikmalar turli modellar yordamida belgilab qoʻyiladi. Masalan, A+N modeli, sifat hamda otdan tuziladigan birikmalarni ifodalab, juda koʻp soʻz birikmalari bu model asosida tuzilishi mumkin. Ammo tilda shunday birliklar mavjudki ular ham soʻz kabi yagona tushuncha ifodalasada, shaklan soʻz birikmasi yoki gapga teng keladi. Bunday birliklar tilda tayyor holda saqlanib nutqqa shundayligicha olib kiriladi va frazeologik birliklar deb ataladi. FB ikki va undan ortiq leksemaning oʻzaro semantik bogʻlanib umumlashma koʻchma maʼno kashf etishidan vujudga keladi [3;21].

Avvalambor, FB larning oʻziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, ularni erkin birikmalardan ajratib koʻrsatuvchi bir necha farqlarini keltirib oʻtish joizdir. Birinchidan erkin birikmalar komponentlari tarkibiga turli xil leksik, grammatik oʻzgartirishlar kiritish mumkin. Yuqoridagi modelga asosan tahlil qiladigan boʻlsak, “red” sifati juda koʻp otlar bilan birikib kelishi mumkin va bunda u qizil rangni bildirish maʼnosini saqlab qoladi. (red frock, red banner, red strip, red hair, etc.), shuningdek bu sifat predmetni bildiruvchi har qanday soʻz bilan birikishi va sanoqsiz soʻz birikmalari yasashi mumkin (red frock, dirty frock, new frock, expensive frock, etc.). Ammo FB larda komponentlar orasidagi tartib qatʼiy boʻlib, turli oʻzgarishlar maʼno buzilishiga sabab boʻladi. Masalan “black sheep” (=the worst member) A+N modelida tuzilgan boʻlsada, minimal oʻzgarishlarga uchragan holatlarda ham frazeologik maʼno buziladi.

FB lar gʻarb tilshunoslari taʼkidlaganidek nutqni yanada taʼsirchan, jonli va ifodali boʻlishi uchun xizmat qiladi. Sinonim soʻzlar nutqning otashin, rang barang boʻlishini taʼminlaganidek, FB lar millatning urf-odatlarini, anʼanalarini, tarixi-yu hozirgi kunini oʻzida aks ettiradi.

FB lar tahlilida xarakterli jihat shundaki, ular erkin birikmalardan farqli ravishda sintaktik yaxlit, semantik oʻzgarimas birliklar hisoblanadi [4;112] FB birlik yuqorida keltirilgandek yaxlitlikka ega boʻlishi uchun bir necha xususiyatlarga ega boʻlishi kerak, [5;12] yaʼni FB larni til sathidagi boshqa elementlardan farqlovchi oʻziga xos belgilari mavjud boʻlib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchidan, FB lar uchun xos boʻlgan formal belgilar:

- turgʻunlik;
- ikki yoki undan ortiq leksemadan yasalishi;
- asosan soʻz birikmasi modelida ifodalanishi;
- tilda tayyor holda saqlanib nutqqa shundayligicha olib kirilishi;

Semantik belgilarga FB lar komponentlarining har doim koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi, komponentlar bogʻlanishidagi erkinlikning yoʻqolishi kabilar kiritiladi.

Funksional belgilarga kommunikativlik va nominativlikni kiritishimiz mumkin.

Stilistik belgilariga ta'sirchanligi, nutqni emotsionalligini boyitishi, o'ziga xos baho semalarini o'zida mujassamlashtirib kelishi kabilarni kiritamiz.

FB larning faqat o'ziga xos bo'lgan, tildagi boshqa birliklardan farqlash uchun xizmat qiladigan kategorial belgilari ham mavjud. Ularning asosiy kategorial belgisi, ularning nutq momentida tayyor birlik sifatida qo'llanilishi hisoblanadi [5;14]. Chunki FB lar nutq momentida yasalmaydi, to nutqga kirguncha tilda shakllanib, so'zlovchiga ham tinglovchiga tushunarli birlik sifatida saqlanib qolgan bo'ladi. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, tilda yuqoridagi belgilarga ega bo'lgan boshqa birliklar ham mavjud bo'lib, ularni FB lar bilan adashtirmaslik lozim. Masalan:

Sitata va afforizmlar: to be or not to be thats' the question (Shekspir); A good name is better than precious ointment (Old Testament).

Xalq og'zaki ijodidan epitelar: the apple of discord, the thread of Ariadne, artful Dodger;

Perifrazalar: white gold- oq oltin; ship of desert-sahro kemasi(tuya);

FB larning yana bir muhim kategorial belgisi ularning turg'unligidir, ya'ni ular doimo quyidagi jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi [5;16]:

- domiy yaxlitlik;
- shakliy turg'unlik;
- komponentlar tartibining buzilmasligi;
- grammatik formaning o'zgarmasligi;

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan FB larni turli xususiyatlariga ko'ra klassifikatsiya qilish mumkin. Ya'ni tilshunoslikga oid asarlarda FB larning etimologik, struktur-semantik, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra, yasalishiga ko'ra, ma'nosidagi motivatsion pog'onasiga ko'ra turkumlarga ajratib ko'rsatilgan.

FB larning etimologik jihatdan klassifikatsiya qilinganda ularning ikki turi mavjud ekanligi guvohi bo'lamiz: ma'lum bir tilning o'ziga xos FB lar va o'zlashgan FB lar [4;28].

Tilning o'ziga xos FB lar ingliz urf-odatlarini, dini va tarixi bilan bevosita aloqadorlikda rivojlanadi. Shuningdek ularga mashhur ingliz adabiyotlaridan kelib chiqqan so'zlar ham kiritiladi. Masalan: a fool's paradise ("Romeo and Juliet"), the green-eyed monster ("Othello"), murder will out ("Macbeth"), etc. Ingliz tili frazeologiyasida Shekspir asarlaridan o'zlashtirilgan juda ko'plab FB lar mavjud bo'lib, ularni shekspirizmlar deb ham atashadi [6; 32].

Masalan: to the manner born (Hamlet); the seamy side (Othello); to make assurance double sure; to speak daggers (Hamlet)

O'zlashgan FB lar turli xil manbalardan kirib kelgan bo'ladi. Masalan ingliz frazeologiyasida "Injildan" o'zlashgan FB lar salmoqli foizni tashkil qiladi: to cast pearl before swine, the root of all evil, a wolf in sheep's clothin and etc.

Shuningdek, frazeologik fondning anchagina qismi antik mifologiya hamda qadimiy adabiyotlar namunalariga borib taqaladi: the apple of discord, the golden age, the thread of Ariadne, at the greek calends etc.

Ingliz tilida boshqa tillardan hamda ingliz tilining boshqa variantlaridan kirib kelgan frazeologizmlar ham mavjud: let's return to our muttons (fransuzcha revenons à nos moutons), blood and iron (Bismark siyosati mazmuni Blut und Eisen), blue blood, to lose face (xitoy tilidan tiu lien) a green light, bark up the wrong tree, to look like a million dollars, time is money (amerika shevasidan);

Akademik V.V Vinogradov FB larni ma'nosidagi motivatsion o'zgarishlariga ko'ra ya'ni frazmadan yaxlitligicha anglashilgan ma'no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning uch semantik turini farqlaydi [2;61]:

1. Frazeologik butunlik;
2. Frazeologik chatishma;
3. Frazeologik qo'shilma;

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan, shu leksik ma'nolar umumiy maxraji sifatida gavdalanadigan frazema-frazeologik butunlik deyiladi [7;veb sayt]. Masalan: a fish out of water (xijolat, noqulay vaziyatdagi odam) to fall into a rage- (g'azablanmoq); to get on one's nerves (asabiga tegmoq); to play the first fiddle (biror ishda yetakchilik qilmoq)

Frazeologik butunlikda obrazlilik yuqori darajada bo'ladi. Uning komponentlari orasidagi bog'liqlik asoslangan bo'lib, metaforizatsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazeologik butunlikning boshqa FB lardan farqlovchi, o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib bular quyidagilar:

-yuqori darajadagi obrazlilik hamda ayrim hollarda so'z birikmalari bilan omonimlik munosabatiga kirishishi;

-alohida komponentlarning semantik butunligi;

-komponentlar tartibiga o'zgartirishlar kiritila olinmasligi;

-boshqa FB lar hamda alohida so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishi;

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydigan, leksemaning leksik ma'nolari hisobga olinmaydigan frazema-frazeologik chatishma deyiladi[7; veb-sayt]. Masalan: to show white feather (qo'rmoq); Kilkenny cats (ashaddiy dushmanlar); at six and sevens (chalkash holatda); to set one's cap at smb (kimnidir maftun qilishga urinmoq);

Frazeologik chatishmaning boshqa frazeologik birliklardan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ba'zan tarkibida arxaizmlarning qo'llanilishi;

- sintaktik jihatdan yaxlitligi;

- komponentlari tarkibining turg'unligi;

-komponentlar leksik ma'nolarining umuman ahamiyatini yo'qotganligi;

V.V. Vinogradov tahliliga asosan FB larning uchinchi turi bo'lmish frazeologik qo'shilmalar ham turg'un ko'chma ma'noga asoslangan birlik bo'lib, boshqa FB lardan asosiy farqi takibidagi komponentlardan biri, o'z lug'aviy ma'nosida qo'llanilishidir.

Masalan: break a promise (va'dani buzmoq); pay attention(e'tibor bermoq); to be good at smth (biror sohada iqtidorli bo'lmoq); keep a promise(va'dasida turmoq);

Frazeologik birikma tarkibiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkinligi sababli erkin birikmalarga yaqin turadi. Ammo shu o'rinda faqat frazeologik birikmalar uchun xarakterli jihatlarni sanab o'tish joiz:

-tarkibida turli semantik-struktur o'zgartirishlar kiritila olinishi;

-komponentlardan biri albatta erkin holatda ishlatilishi;

-ba'zan tarkibida aniqlovchinig ishlatilishi

-komponentlar tartibining o'zgartirila olinishi;[6;185-190]

Ba'zi frazeologiyani keng ma'noda o'rganilishi tarafdorlari FB larning to'rtinchi turini ham farqlab ko'rsatadilar va unga so'zlashuv birliklari hamda qanotli so'zlarni ham kiritadilar. Bu turga maqollar, matallar hamda mashur tilshunoslar va olimlarning afforizmlari ham kiritiladi.

Masalan: East or West home is best; Marriages are made in heaven; Still waters run deep kabilar.

I.B. Arnold ingliz frazeologik birliklarini uch turini farqlagan: set- expressions, semi fixed combinations, free pharses deb ajratilgan birliklar Vinogradov klassifikatsiyasiga to'la mos keladi. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ingliz tili frazeologik fondining asosiy qismini frazeologik butunliklar tashkil qiladi.

Buyuk rus akademigi A.V. Kunin FB larni yasalishiga ko'ra ikki turga ajratadi [5;17]:

1. Erkin birikmalar asosida yasaladigan FBlar;

2. FB lar asosida yasaladigan FB lar;

Hozirgi zamon ingliz tilida keng tarqalgan FB larning aksariyati erkin birikmalar asosida yasalgan bo'lib, ularni o'zini ham bir necha sinflarga ajratish mumkin:

a) Terminologik so'z birikmalarining ma'nolarini o'zgartirish asosida yasaladigan FB lar. Masalan kosmik texnik vositalarga nisbatan ishlatiladigan quyidagi so'z birikmalarining ma'nolari ko'chishi asosida quyidagi frazemalar yasalgan: launched pad-start maydonchasi,ko'chma ma'noda boshlang'ich punkt, link up-kosmik kemalarni tutashtirmoq, frazeologik ma'noda tanishmoq;

b) Erkin so'z birikmalari ma'nosini o'zgartirish asosida yasalgan FB lar: granny farm-qariyalar uyi, Troyan horse-kompyuter programmasiga zarar yetkazish uchun yasalgan kompyuter programmasi;

c) Alliteratsiya asosida yasalgan FB lar: sad sack- falokat oyoq ostida, culture vulture-san'at shaydosi; fudge and nudge-noaniq, mujmal;

d) Undov so'zlar ta'sirchanligini oshirish vositasida yasalgan FB lar: My aunt! Hear! Hear!

e) So'z birikmalarini buzib talaffuz qilish vositasida yasalgan FB lar: odds and ends birikmasi "odd ends" asosida yasalgan;

f) Frazelogik birliklar ma'lum bir so'z birikmasi yoki gapni turli xil holatlarda qo'llash natijasida ham paydo bo'ladi. Masalan "that cock won't fight" erkin birlik sifatida xo'roz urishtirish musobaqalari paytida qo'llanilishi mumkin, ammo u metaforik ma'noda ham turg'un birlik sifatida ishlatiladi;

FB lar yasalishining ikkinchi usuli bo'lmish turg'un birikmalarning o'zidan yangi FB lar hosil qilish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

a) konversiya usulida: to vote with one's feet(fe'l), vote one's feet(ot);

b) grammatik shaklni o'zgartirish vositasida: make hay while the sun shines-to make a while the sun is shining

c) analogiya vositasida: curiosity killed the cat-care killed the cat

d) kontrast vositasida ya'ni ma'lum bir FB ga zid ma'noli yangi birlik hosil bo'lishi natijasida: thin cat-kambag'al odam, fat cat-boyvachcha;

e) maqol va matallarning qisqartirish vositasida- "You can't make a silk purse out of a sow's ear" –"to make a sow's ear"

f) boshqa tillardan FB larning kirib kelishi vositasida ham yangi FB lar yasaladi: "living space" (Nemis tili), "to take the bull by the horns" (lotin tili) [2; 62]

A.V. Kunin ta'limotiga binoan, FB larni struktur-semantik jihatdan tahlil qilganda FB lar to'rt yirik guruhga ajratiladi [2;296]:

1. Nominativ FB lar-ma'lum bir obyekt, harakat, holat, sifatni ifodalab keluvchi FB lardir. A.V. Kunin ushbu birliklarni o'zini ham bir necha turlarga ajratib ko'rsatadi.

a) substantive – a snake in the grass, a bitter pill to swallow;

b) adjective – long in the tooth;

c) adverbial – out of a blue sky, as quick as a flash;

d) predlogli– with an eye to , at the head of.

2. Nominativ-kommunikativ birliklar-asosan fe'lli frazeologik birliklar : to dance on a volcano, to set the Thames on fire, to know which side one's bread is buttered, to make (someone) turn (over) in his grave, to put the hat on smb's misery.

3. Undov so'zli FB lar so'zlovchining emotsional holatini ko'rsatib beruvchi FB lardir. A pretty kettle of fish! Good God! God damn it! Like hell!

4. Kommunikativ FB larga asosan maqol va matallar kiritiladi: An hour in the morning is worth two in the evening; Never say "never"; That's another pair of shoes!

Ingliz tili frazeologiyasida ko'p tilshunoslarni qiziqtirgan yana bir masala FB larning so'z turkumlari bilan ifodalanish masalasidir. Xususan bu borada A.V.Kunin, I.V. Arnold shuningdek P.P.Litvinovlar tadqiqot olib borishgan

I.B. Arnold FB larni strukturasi binoan ya'ni qaysi so'z turkumi sifatida qo'llanilishiga ko'ra klassifikatsiya qilgan tilshunoslardan hisoblanadi. U FB larni bu jihatdan quyidagicha turlarga bo'lib ko'rsatgan[1;368]:

FB lar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, ya'ni FB larda so'z, so'z birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi. Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib borayotgan ingliz tilshunosligida turli tipdagi so'z yasash qoliplari, semantik-funksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi aloqalar o'rganilishi muhim. Bu esa ingliz tilshunosligi oldida yangi maqsadlarni ochadi. FB lar til egalari ongidagi, oraliq hodisalar sifatida tebranuvchi va noaniq xarakterga ega. L.V. Sherba xuddi ana shu tebranuvchi va noaniq hodisalar tilshunoslarni e'tiborini tortishi zarurligini ta'kidlab o'tgan edi. Afsuski so'z va so'z birikmalari va gap uzoq yillar davomida tilshunoslikning asosiy birliklari sifatida qabul qilib kelindi. Bu esa birinchidan til birliklarining ierarxik (pog'onali) munosabatini chuqur tahlil etmaslikka olib keldi, ikkinchidan esa boshqa til birliklari, jumladan FB lar semantikasi ,funksional-uslubiy xususiyatlari tadqiqqiga soya tashlab turdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1959.
2. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. – Л.,1946.
3. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.:Издательство «Высшая школа», 1970.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005.
5. Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: автореф. дис. д-ра филол. наук – М., 1964.
6. Телия В.Н. О типах и способах фразеобразования (в его коммуникативно-функциональном аспекте описания) // Проблемы русского фразеобразования. – Тула, 1973.
7. Web sayt
8. Khamidovna, N. N. (2022). THE DENOTATION AND CONNOTATION OF A WORD. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 382-

388. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1242>
9. Khayriddinkizi, K. K. (2021). Strategies of Improving Writing Skill for B1 Learners. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES, 2, 204–207. Retrieved from <http://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/125>
10. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2022). SEMANTIC PROPERTIES OF ANTHROPONYMS. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.626>
<https://ijins.umsida.ac.id/index.php/ijins/article/view/626>
11. Akramov I. NUTQIMIZDA AFORIZMDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI NIMADA? . buxdu.uz [Internet]. 2022 Jan. 17 [cited 2022 May 27];8(8). Available from:
http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4265
12. Makhmudovich, T. M. ., & O’rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. ИЖТИМОЙЙ ФАНЛАРДА ИННОВАЦИЯ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 46–49. Retrieved from
<http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
13. Zarnigor, D. (2021). Phytonymic comparison as a means to create image in poetry. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 693-698.
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=9&article=118>.